

№2

FEBRAL  
**2025**

# MUNANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan  
va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*



CYBERLENINKA



INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL



НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



# Muhandislik va Iqtisodiyot

*Elektron nashr,  
390 sahifa, fevral, 2025-yil.*

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

## **BOSH MUHARRIR:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

## **TAHRIR HAY'ATI:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

**Sharipov Kongratbay Avazimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otobek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbanov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

**Bauyedtinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

# Muhandislik va Iqtisodiyot

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil  
28-avgustdagi 360/5-son  
qarori bilan "Dissertatsiyalar  
asosiy ilmiy natijalarini chop  
etishga tavsiya etilgan milliy  
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga  
texnika va iqtisodiyot fanlari  
bo'yicha "Muhandislik va  
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga  
kiritilgan.

## Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

### Hamkorlarimiz:

- Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- Toshkent davlat transport universiteti
- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
- Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
- Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Turizmning zamonaviy yo'nalishlarini rivojlantirish xususiyatlari .....	17
<b>Xolmurzayev Sobir Nazarovich</b>	
Tashqi iqtisodiy sharoitlar o'zgarishining o'zbekistondagi narxlar darajasiga ta'siri.....	23
<b>Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich</b>	
The main influencers of the quality assurance in tertiary education .....	29
<b>Shakirova Dilfuza Tulkunovna</b>	
Xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchi-xodimlarni boshqarish tizimini optimallashtirish.....	35
<b>Sultonov Sanjar Jaxongir o'g'li</b>	
O'zbekistonda tungi iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi.....	41
<b>Normamatov Ne'mat Daminovich</b>	
Ta'lim menejerining professionalligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari .....	45
<b>Abdullahayev O'tkir Sadullayevich</b>	
Ekologik buxgalteriya hisobining uslubiy jihatlari.....	57
<b>Hatidje Nasirova</b>	
Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda marketing yondashuvi.....	65
<b>Amonov Mehriddin Oromiddinovich</b>	
Infratuzilmani rivojlantirish – mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish drayveri sifatida .....	70
<b>Sayfulina Alfira Feratovna</b>	
Soliq nazorati jamoatchilik nazoratining shakli sifatida.....	79
<b>Suvonov Hasan Sherboyevich</b>	
Разработка интеллектуальной системы управления многостадийными технологическими процессами.....	84
<b>Алишев Шеркузи Абдуманнонович</b>	
Masofaviy xodimlarning mehnat faoliyatini rag'batlantirish tizimini rivojlantirish .....	91
<b>Tolliboyev Samad Tolliboy o'g'li</b>	
Sug'urta xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari .....	99
<b>Umirov Abdisalom To'rayevich</b>	
IOTtarmoqlari uchun optimallashtirish usullarini tahlil qilish .....	105
<b>Abdug'aniyev Bekzod Burxon o'g'li</b>	
Tarmoq xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar va usullar .....	110
<b>Raxmonkulov Feruz Pardaboyevich</b>	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ida innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish holatining matematik modeli.....	114
<b>Ishniyazov Baxrom Normamatovich</b>	
Sug'urtada anderryting xizmatini raqamlashtirish orqali sug'urta mukofoti va to'lovlarini amalga oshirishni takomillashtirish .....	120
<b>Mirzoyev Sayfulllo Fayzulloyevich</b>	
Korxonalar faoliyatini yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirish imkoniyatlari.....	128
<b>Muxiddin Eshmuradov</b>	
Aholi turmush farovonligini oshirishning inson omiliga ta'siri.....	133
<b>Sharofiddin Ismatov Asatulloyevich</b>	
Soliq salohiyatini baholashning zamonaviy metodlari va ularning rivojlantirish istiqbollari .....	137
<b>Jo'rayev Xusan Atamuratovich</b>	



Ish o'rinlarini qonuniylashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yo'llari.....	143
<b>Dilshod To'rayev</b>	
Davlat tashkilotlarida g'aznachilik va davlat xaridlari bilan bog'liq jarayon holatining tahlili.....	147
<b>Mamasoliyev Abrorbek Abdug'an o'g'li</b>	
Iqtisodiy transformatsiyalashuv sharoitida aholi bandligini ta'minlashning ayrim masalalari.....	152
<b>Salomat Norova</b>	
Moliyaviy sektorni soliqqa tortish.....	159
<b>Komolov Odiljon Sayfidinovich</b>	
Bojxona ma'muriyatichilagini takomillashtirishda bojxona menejmentini shakllantirish metodikasi.....	165
<b>Mirzaxmedova Dilafruz Farxatovna, Tuxbabayev Jamshid Sharafetdinovich</b>	
O'zbekiston tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotini rivojlantirish istiqbollari.....	171
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b>	
Mamlakatda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy jihatlari .....	177
<b>Azamatov Po'lat To'lqunovich</b>	
Surxondaryo viloyati tumanlari iqtisodiyotidagi tarkibiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	183
<b>Normurodov Alibek Anvar o'g'li</b>	
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari .....	189
<b>Bobobekov Ergash Abdumalikovich</b>	
Asosiy vositalarni audit obyekti sifatida tasnifi va tavsifi .....	196
<b>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumuradova Farangiz Damirovna</b>	
Iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirishga kreativ yondashuvning samarali tadbirlari.....	201
<b>Rajabbaeva Dildora Zakirovna</b>	
Роль цифровизации в обеспечении экономической безопасности предприятий.....	206
<b>Махмудова Гулжакон Нематджоновна, Жанызакова Шахноза Мажит кизи</b>	
Transport korxonalarida xarajatlar va daromadlar hisobini takomillashtirish masalalari.....	215
<b>Jabbarov Umarbek Rustambekovich, Rustamova Dilnura Umarovna</b>	
To'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini baholash asosida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari .....	220
<b>Sadriddinova Nigora Khusniddinovna</b>	
Uzum yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish darajasini baholash.....	227
<b>Boltayev Nazarbek Narzullayevich</b>	
Совершенствование управлеченческого учета в узбекистане: проблемы, интеграция и перспективы развития .....	236
<b>Киличева Ф.Б.</b>	
Tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'llari.....	241
<b>Muxitdinov Ulugbek Diyarovich</b>	
Tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlarni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	246
<b>Zaynudinov Bunyodjon Odiljon o'g'li</b>	
Korxonalarni inqirozga yetaklovchi omillar va ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar.....	255
<b>Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li</b>	
Kasallikkarni erta aniqlash imkoniyatlarini oshirishda zamonaviy dasturiy ta'minotning roli .....	260
<b>Mamatov Maxtumquli Jumanazarovich</b>	



Qoyali zaminlarda gravitatsion to'g'onlar tasnifi .....	264
<b>Maksimov Dilmurodbek Erkinjonovich</b>	
Improvement of financing the innovation projects of business entities.....	270
<b>Jubanova Bayramgul Aymuratovna</b>	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llari.....	278
<b>Rustamov Eldor Baratovich</b>	
Xarajatlar tushunchasining iqtisodiy mohiyati va hisobga olishning amaliy jihatlari .....	285
<b>Aytimbetov Qoysibek Orazbekovich</b>	
Investitsion loyihalarni baholashda yuzaga keluvchi risklarni tahlil qilish va bartaraf etish yo'llari.....	291
<b>Xurramova Madina Mansur qizi</b>	
O'zbekistonda aholining unumli bandligi darajasini oshirishdagi huquqiy jihatlar.....	300
<b>Qurbanov Samandar Pulatovich</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari foydasini shakllantirish va ko'paytirish masalalari .....	309
<b>Saxibjonov Muzaffar Salijanovich</b>	
Xorij tajribasi asosida mamlakatimizda moliyaviy savodxonlikni oshirish.....	316
<b>Shamansurova Zilola Abduvahitovna</b>	
Mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda tarmoq va sohalarning o'rni .....	322
<b>Ayubov Ilyos Ilxomovich, Xudoynazarov Dilbek Baxodir o'g'li</b>	
Korxonalarda qimmatli qog'ozlar audit masalalarini rivojlantirish .....	327
<b>Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich</b>	
Banklarda moliyaviy xavfsizlikning o'ziga xos jihatlari.....	335
<b>Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li</b>	
Turizmda transport logistikasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	340
<b>Vakilov Ruslan Tillabayevich</b>	
Sayohatchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish: raqamli xavfsizlik va qonunchilik o'zaro ta'siri.....	345
<b>Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li</b>	
Yangi konstruktiviyali aylanuvchi stolga ega tikuv mashinasida tajribalar tahlili .....	351
<b>Amonov Abdurahmon Rafiq o'g'li, Muxamedjanov Mironshoh Mansurjon o'g'li</b>	
Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi AQSH tajribasi .....	356
<b>Rajapov Shuxrat Zaripbayevich</b>	
Пути обеспечения инклюзивного роста Республики Узбекистан .....	363
<b>Аскарова Мавлуда Турабовна</b>	
Mamlakatimizdagi tijorat banklari aktivlarini boshqarishning amaldagi holati tahlili .....	372
<b>Baxriddinov Sharofiddin</b>	
Elektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriyatichilagini tashkil etish uslubiyatining o'ziga xos xususiyatlari .....	382
<b>Urazaliev Kamoliddin Tajikulovich</b>	



# ELEKTRON TIJORATNI SOLIQQA TORTISH MA'MURIYATCHILIGINI TASHKIL ETISH USLUBIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Urazaliev Kamoliddin Tajikulovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

orcid: 0009-0008-5158-9229

mail: urazaliyev\_kamoliddin1979@tsue.uz

**Annotatsiya:** Maqolada elektron tijoratning mohiyati olib berilgan, uni soliqqa tortish ma'muriyatchiligi tahlil etilgan. Raqamlı iqtisodiyot sharoitida tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan elektron tijoratning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda axborot vositalari yordamida tovar, ish va xizmatlarni realizatsiya jarayonini soliqqa tortishda alohida samarali soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish va amalda qo'llash zarurligi ma'lum bo'ldi. Mazkur jarayonda samarali soliqqa tortish ma'muriyatchiligi amalga oshirilmasligi davlat budgeti rejalarini bajarilmasligiga olib kelishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** elektron tijorat, Internet, elektron tijoratni soliqqa tortish, soliq ma'muriyatchiligi, milliy soliq tizimi, soliq yurisdiksiyasi, xalqaro soliqqa tortish, ikki tomonlama soliqqa tortish.

**Abstract:** The article reveals the essence of e-commerce and analyzes its tax administration. Considering the specifics of electronic commerce, which is rapidly developing in the conditions of the digital economy, it becomes obvious that it is necessary to organize and implement particularly effective tax administration of taxation of the process of sale of goods, works, services using information carriers. During this process, it was established that the lack of effective tax administration would result in failure to meet state budget plans.

**Key words:** e-commerce, e-commerce taxation, tax administration, national tax system, tax jurisdiction, national tax jurisdictions, international taxation, double taxation.

**Аннотация:** В статье раскрывается сущность электронной коммерции, анализируется ее налоговое администрирование. Учитывая специфику электронной коммерции, которая стремительно развивается в условиях цифровой экономики, становится очевидным, что необходимо организовать и реализовать особо эффективное налоговое администрирование налогообложения процесса реализации товаров, работ, услуг с использованием информационных носителей. В ходе этого процесса было установлено, что отсутствие эффективного налогового администрирования приведет к невыполнению планов государственного бюджета.

**Ключевые слова:** электронная коммерция, налогообложение электронной коммерции, налоговое администрирование, национальная налоговая система, налоговая юрисдикция, национальные налоговые юрисдикции, международное налогообложение, двойное налогообложение.



## KIRISH

So'nggi yillarda jahonda iqtisodiyotining raqamli sektori kengayib, uning asosiy o'sish omillari hisoblangan elektron tijorat platformalari, raqamli servislar va moliyaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda. Moliya texnologiyalarining jadal rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatida ham yangi muhit, tartib-taomil va usullar majmuasi shakllanishi borasida qulay omillarni yuzaga keltirdi. Xususan, sharhnomalar va kelishuvlarni axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalangan holda elektron shaklda tuzish va elektron tijorat uchun imkoniyat yaratildi. Hozirgi kunda elektron tijorat global Internet tizimining ajralmas qismi sifatida tadbirkorlik ravnaqida muhim o'rinni egallamoqda.

**1-jadval. Elektron tijorat aylanmasining amaldagi va prognoz ko'rsatkichlari (trln. AQSh dollarda)<sup>1</sup>**

Segment	Yillar bo'yicha							
	2019	2020	2021	2022	2023	Prognoz		
						2024	2025	2026
Elektron tijorat aylanmasi	3,5	4,4	4,8	5,2	5,8	6,3	6,7	7,4

Yuqorida keltirilgan Statista xalqaro statistika onlayn-portal ma'lumotlariga ko'ra elektron tijorat barqaror rivojlanib bormoqda, xususan, 2019-yilda jahonda elektron savdo hajmi 3,5 trln. Dollardan oshgan bo'lsa, 2023-yilda dunyo bo'yicha elektron tijorat chakana savdosi 5,8 trln. AQSh dollariga teng bo'lib, elektron tijoratdan tushadigan daromadlar 2026-yilda 2019-yilga nisbatan 2,11 punktga ortishi hamda 7,4 trln. AQSh dollarga teng bo'lishi bashorat qilinmoqda.

Elektron tijoratning an'anaviy tadbirkorlik faoliyatiga qaraganda bir qancha ustunliklari mavjudligi, xususan, tovar narxini pasayishiga olib keluvchi reklama va xizmat ko'rsatish xarajatlarining sezilarli darajada kam bo'lishi tovar (ish, xizmat) larni raqobatbardoshligi ortishi, buyurtmalarni rasmiylashtirish va bajarishga ketadigan vaqt sarfining nisbatan kamligi, tovar-zaxiralarni boshqarish, saqlash va tashish xarajatlarini kamaytirish; sotuvchi uchun tovar (ish, xizmat) lar bozorini kengaytirish imkoniyatlari hamda xaridor uchun esa tanloving deyarli cheksizligi, biznes rivoji uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yuzaga keltirishda namoyon bo'ladi.<sup>2</sup>

Elektron tijoratning ustunliklari tadbirkorlik faoliyatining yo'nalishi sifatida istiqbolga ega ekanligi namoyon bo'immoqda. Ammo bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, shu bilan birga ushbu ustunliklar davlat budgetida sezilarli yo'qotilishlarga ham olib keladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida qayd etilishicha, elektron tijorat ishtirokchilari - bu yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, ular elektron tijorat faoliyatida tovar sotuvchisi, xizmat ko'rsatuvchi yoki ish bajaruvchi, shuningdek, xaridor yoki tovar iste'molchisi sifatida ishtirok etadi.

Elektron tijorat sohasida sotuvchi sifatida elektron savdo maydonchasida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ulgurji yoki chakana tarzda realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar, yakka tartibdagи tadbirkorlar hamda chakana savdo faoliyatini amalga oshirayotgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyat yuritishi mumkin.

1 Манба: Statista xalqaro statistika onlayn-portali// <https://www.statista.com/>

2 Корень А.В. Налогообложение субъектов электронной коммерции: проблемы и перспективы: монография. - Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2011.



Koronavirus pandemiyasi O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini raqamli muhitga moslashishga majbur qildi va elektron savdo maydonlarining shakllanishiga kuchli turtki berdi. Ayniqsa, Telegram, Facebook, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar elektron tijorat platformalari vazifasini bajara boshladi. Bugungi kunda bozorda faoliyat yurituvchi ko'plab chakana savdo sub'ektlari mijozlar bilan aloqa qilish, buyurtma qabul qilish va yetkazib berish jarayonlarini aynan ushbu axborot tizimlari orqali amalga oshirmoqda.

Ma'lumki, elektron tijorat shartnomalari masofaviy tarzda tuziladi. Lekin, onlayn shakldagi bitimlarni rasmiylashtirish ko'p hollarda an'anaviy savdoga nisbatan ko'proq vaqt talab qiladi. Eng muhimi elektron tijoratdan eng katta samarani yoki soliq organlarida ro'yxatdan o'tmagan, tushumlarini rasmiylashtirmaydigan to'liq "soya"da faoliyat yurituvchi "tadbirkor", yoki mutlaqo qonuniy, barcha normativ talablarga amal qiluvchi "oq" biznes subyektlari oladi. Bu elektron tijorat segmentining o'ziga xos xususiyati bo'lib, uni an'anaviy savdodan farqlantiradi. Odatda klassik chakana savdoda bir bitim rasmiylashtirilishi, ikkinchisi esa hujjatlashtirilmasligi mumkin bo'lgan hollarda, elektron tijoratda bu ikkala holatning keskin qarama-qarshi ifodalari kuzatiladi.

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash joizki, Amazon, Alibaba, JD, eBay, Etsy, Zoodmall kabi xalqaro marketpleyslardagi sotuvchilarning 50 foizidan ortig'ini kichik va o'rta biznes subyektlari tashkil etadi<sup>3</sup>. Ular amalga oshirayotgan har bir savdo bitimidan belgilangan tartibda soliq to'laydilar. Bu holat elektron tijoratning jahon amaliyotida qanchalik aniq va tartibli huquqiy mexanizmlarga tayanayotganini ko'rsatadi.

Yuqoridagilarga ko'ra, global Internet tarmog'i muhitida soliqqa tortishning mos platformalarini ishlab chiqish va soliq nazoratini avtomatlashtirishga qaratilgan tamoyillarini qo'llash zaruriyati sababli elektron tijoratning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagagi "Soliq ma'muriyatçiliginin tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5116-sun Farmonida mamlakatimizda soliq qonunchiligi va soliq ma'muriyatçiligini yanada takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida Internet tarmog'ida savdo va xizmatlar ko'rsatish sohasida soliq nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini joriy etish qayd etilganligi ham bejiz emas.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan qiyosiy tahlil qilish, ilmiy abstraktsiya, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Elektron tijorat subyektlarini soliqqa tortish ma'muriyatçiliginin tashkil etishda uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday xususiyatlar sifatida:


Internet tarmog'i yordamida sotib olingan tovarlar uchun pul to'lovi bilan bog'liq operatsiyalarini amalga oshirish uchun elektron tijorat obyektlari va uning xaridorlarining joylashuvida hududiy chegaralar yo'qligi;

vakolatxonaning nomoddiyligi, masalan, O'zbekiston xududida tijorat operatsiyalarini amalga oshirish uchun tashkilotga dunyoning istalgan mamlakatida ro'yxatdan o'tgan sayti bo'lishi kifoya, bu esa uning jismonan bevosita O'zbekistonda mavjud bo'lishi zaruriyatini talab etmasligi;

tijorat bitimlari sir tutilishi anonimligi, ya'ni operatsiyalarning asosiy tavsiflari (to'lov summasi, to'loving maqsadi, to'lovnvi oluvchi) uchinchi shaxslardan, shu jumladan soliq organlaridan ham yashirinligini;

mijochning anonimligi, Internet-savdoda tovarlarga to'lovnvi amalga oshirishda shaxsni tavsiflovchi identifikasiya ma'lumotlari nafaqat uchinchi tomonidan, balki bitim ishtiroychilari tomonidan ham yopiqligi (sotuvchi, odatda, xaridorining kim ekanligini, tovar nima maqsadda sotib olinayotganligi, ikkinchi tomonning boshqa tavsiflari ham, xususan, soliqqa tortish tizimi, soliq reestri ham noma'lumligi).

<sup>3</sup> Электронная коммерция: законодательство не поспевает за отраслью. <https://anhor.uz/society/e-commerce/>

1-rasm. lektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriatchiligining o'ziga xos xususiyatlari<sup>4</sup>

Ushbu xususiyatlarni elektron tijorat obyektlarini soliqqa tortishda uni yashirish imkoniyatlarini kengaytiradi, shu nuqtai nazaridan, mazkur yo'nalishda faoliyat ko'rsatuvchi sub'ektlarni soliqqa tortish modelini ishlab chiqish va soliq nazorati tizimini takomillashtirishda ularni e'tiborga olish talab etiladi.

Hozirgacha orttirilgan tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, Internet-tadbirkorligi faoliyatida alohida bitim yoki yaxlit tashkilot darajasida ham soliqqa tortishdan qochish imkoniyatlari kengayishi, uning natijalariga ko'ra elektron tijorat sub'ektlari qo'shilgan qiymat solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va boshqa turdag'i majburiy to'lovlar bo'yicha soliqqa tortish bazasini kamaytirish imkoniyati kengayishi kuzatilmoqda.

Bu jarayonda elektron tijoratning tez sur'atlar bilan o'sib borishi, jahon mamlakatlari uchun moliya va soliq siyosatini samarali amalga oshirishda hisobga olishni talab etilayotgan soliq salohiyati mavjudligini qayd etib o'tish o'rinnidir.

Elektron tijoratning dastlabki shakllanish bosqichida uni rivojlantirishga to'sqinlik bo'lmasligi va o'sishi sekinlashmasligi maqsadida amaldagi umumiyligi belgilangan tartibdagi soliqqa tortish tizimini saqlab qolinishi, qo'shimcha solidlar va boshqa majburiy to'lovlar joriy qilinmaganligi, alohida soliq ma'muriatchiligi qo'llanilmaganligi kabi yondashuvlarda soliqqa tortish borasida ehtiyojkorlik bilan qaralgan bo'lsada, keyingi yillardagi tijoratning bu turdag'i jarayoni jadal rivojlanishi Yevropa ittifoqi mamlakatlari hamda boshqa qator mamlakatlar budget yo'qotishlarini oldini olish nuqtai nazaridan uning yuqorida keltirib o'tilgan xususiyatini hisobga olgan holda soliqqa tortishda alohida yondashuvni ishlab chiqish va qo'llash zarurligini ta'kidlanmoqda<sup>5</sup>.

Elektron tijorat segmentida bojaxona bojarini to'lash ham ko'zda tutilganligi bois, birinchi navbatda, buyurtmalarni Internet tarmog'i orqali amalga oshirayotgan jismoniy tovarlar savdosida bir vaqtida tovarni olish bojaxona boji to'lanishi bilan birga amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotda raqamli tovarlarni soliqqa tortish masalasi dolzarb sanaladi. Huquqiy jihatdan raqamli iqtisodiyotda ham tovarlar bir joydan ikkinchi joyga ko'chish (sotish)da bojaxona to'lovlar undirilishi lozim. Shuni qayd etish kerakki, hanuzgacha ushbu tovarlarning harakatini bojaxona chegarasi orqali nazorat qilishning samarali mexanizmi jahon soliq amaliyotida shakllantirilgani yo'q. Xususan, elektron tijoratda tovarlardan boj to'lovlarini undirish usullari xali ishlab chiqilmagan. Odatda, elektron tovarlardan bojaxona to'lovlarini undirishdan voz kechib kelinganligini quyidagi holat bilan izohlanadi, ya'ni bojaxona nazoratini o'tkazish xarakatlari boj to'lovlarini summasi hajmida yuqori eaknligi sababli shunday yondashuv amalga oshirilgan.

Elektron tijoratning o'ziga xos xususiyatlari soliq solish ob'ektini yashirish imkoniyatlarini oshirishini birmuncha kengroq tahlil qiladigan bo'lsak, bir qator talablar yuzaga kelishi kuzatiladi.

Ma'lumki, yuridik shaxslarni soliq ro'yxatidan o'tkazish va soliqni rasmiylashtirish soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Lekin Internetda tijoratda muntazam ravishda daromadni olishga qaratilgan faoliyat nafaqat belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va soliq hisobini yurituvchi soliq to'lovchilar tomonidan, balki yuqorida ko'rsatilgan tartiblardan o'tmag'an subyektlar tomonidan

4 Тадқиқотлар натижасида муаллиф ишланмаси

5 Кондрашин А. В., Кондрашин В. А. Проблемы налогообложения электронной коммерции на современном этапе // Молодой ученый. - 2018. - №27. - С. 85-87. - URL <https://moluch.ru/archive/213/51957/> (мурожаат санаси: 16.04.2019).



ham amalga oshirilishi mumkin. Bunday faoliyatda nafaqat soliq organlari, balki noqonuniy tadbirkorlik faoliyatini aniqlash va tegishli tarzda ma'muriy-jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha vakolatlari organning nazorati ham talab etiladi.

Soliq organlari o'zlarining vakolati darajasida bank hisob raqamlari va elektron "hamyon" larga ega tijorat sub'ektlarining bank hisobvaraqlaridagi mablag'lar oqimini va elektron pul o'tkazmalarini nazorat qilishlari, kredit muassasalaridan bunday faoliyat bo'yicha ma'lumotlarni olishi mumkin. Ammo, bunday faoliyatni rasman tadbirkor sifatida emas, balki o'z elektron "hamyon"iga ega bo'lgan shaxs sifatida amalga oshirsa, unda bunday mablag'larning elektron oqimini soliq nazoratiga olish imkoniyati yo'qqa chiqadi.

Ushbu jarayonda xorijiy tijorat subyektlari elektron mahsulotlar va xizmatlarni yetkazib beruvchilarning daromadlari to'g'risida kredit tashkilotlarining majburiyatlarini belgilash ham maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, Internet tijorat orqali buyurtma qilingan tovarlar naqd pul bilan to'langan taqdirda, masalan, pochta kureri tomonidan xaridorga tovar yetkazib berilganligi kabi holatlarni ham uchratish mumkin, tadbirkorlik sub'ekti tomonidan mablag'ni kassasiga kirimi amalga oshirilmasligi hamda bu kabi holatlar soliq bazasini kamaytirish, yo'qotish yoki soliq solish obyektini yashirish xavfi oshishiga omil bo'ladi.

Elektron tijoratni soliqqa tortish masalasi xalqaro va mamlakat darajadagi muammolarni o'z ichiga oladi. Xalqaro darajadagi muammolarga: soliq yurisdiksiyasini aniqlash, xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortish, soliq qonunchiligi tizimidagi bo'shlqlar, nosog'lom raqobat, mamlakat darajadagi muammolarga: soliq to'lovchining soliqqa tortish tartibini (tizimini) aniqlash, soliq ma'murchilagini takomillashtirish, soliq qonunchiligidagi kamchiliklar va boshqa holatlarni keltirib o'tish mumkin.

Elektron tijoratni soliqqa tortish jarayonida soliq ma'muriyatichiligi muammolarining yuzaga kelish sabablaridan biri sifatida ko'p tomonlama yoki ikki tomonlama davlatlararo soliq organlari o'rtasida o'zaro muvofiqlashtirish tizimining mavjud emaslidir. Elektron tijorat sohasidagi soliq ma'murchilagini takomillashtirishda soliq xizmatlarining xalqaro hamkorlik yo'nalishlarini rivojlantirish zarurligi ortmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3724-son «Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, daromadlarining kamida 80 foizi tovarlar (xizmatlar)ni elektron tijorat subyektlari reestri yuritilishi belgilangan. Ushbu reestrga kiritilgan ishtirokchilar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 4 foiz o'rniga 2 foiz etib belgilangan. Keyinchalik, mazkur me'yor amalda o'zgartirildi va yangi tahrirdagi Soliq kodeksida quyidagi norma belgilandi: elektron savdo orqali tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilayotgan soliq to'lovchilar uchun foya solig'i stavkasi umumiyligi 15 foiz o'rniga 7,5 foizni tashkil etadi<sup>6</sup> va yagona soliq to'lovi stavkasi esa 4 foiz o'rniga 2 foiz etib belgilangan.

**1-jadval. O'zbekistonda elektron tijorat korxonalarining Milliy reestridan ro'yxatdan o'tgan elektron tijorat subyektlari<sup>7</sup>**

№	Ko'rsatkichlar	Yillar						
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Elektron tijorat sub'ektlari soni	42	150	320	475	501	514	526
2	Elektron tijorat sub'ektlari sonining yillik o'sish sur'atlari	100	357,1	213,3	148,4	105,4	102,6	102,3

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси солиқ кодексининг 337- ва 467-моддалари.

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикаси электрон тижорат корхоналарининг Миллий реестрининг e-tijorat.uz сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.



1-jadvalda keltirilgan Elektron tijorat korxonalarining Milliy reestri ma'lumotlarini tahlil natijalariga ko'ra O'zbekistonda 2018-yilda 42 ta elektron tijorat bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat ko'rsatgan. 2019-yilda ular soni avvalgi yilga nisbatan 357,1 foizga ko'payib, 150 tani tashkil etgan. 2020 va 2021-yillarda ham ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar soni jadal sur'atlar bilan o'sganligini, jumladan, 2020-yilda 213,3 foizga o'sib, 320 ta korxona va 2021-yilda 148,4 foizga o'sib, 475 ta korxonani tashkil etgan. 2022–2024-yillarda elektron tijorat bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlari sonining o'rtacha yillik o'sishi 5 foizni tashkil etgan bo'lib, ular soni 2022-yilda 501 ta, 2023-yilda 514 ta va 2024-yilda 526 ta bo'lgan.

Mininfokom tomonidan yuritilgan ushbu reestr bo'yicha e-tijorat.uz portalida hammasi bo'lib 576 ta korxona ro'yxatdan o'tgan. Bu esa elektron tijorat bilan shug'ullanayotgan haqiqiy subyektlarning juda oz, nazariy jihatdan hech narsani hal qilmaydigan qismi xolos. Shu tariqa davlat, bir tomonidan, elektron tijorat sohasini tartibga solishga harakat qilmoqda, ma'lum soliq imtiyozlarini taklif qilmoqda, biroq bu jarayonlarni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi aniq mexanizmlari taklif qilinmaganligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab korxonalar ushbu reestrda qayd etilmagan va shu bois, amalda belgilangan Soliq kodeksidagi imtiyozlardan foydalanmasdan, umumiyl tartibda soliq to'lagan.

Hozirgi kunda elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektlarining soni, ular tomonidan hisobot davrida amalga oshirilgan tovarlar, xizmatlar va ishlar hajmi, ular olgan naqd va naqdsiz tushumlar hamda ular to'ilagan soliq va yig'imlar to'g'risidagi aniq, ishonchli va dolzarb ma'lumotlarni tez, tushunarli va oson tarzda aniqlash imkonini beradigan biror bir normativ-huquqiy hujjat mavjud emas. Shuningdek, amaliy jihatdan ham, hozirgi mavjud axborot tizimlari elektron tijorat sub'ektlarini aniqlash, ularning aylanmalarini baholash, statistik va soliq hisobini yuritish vazifalarini to'liq bajarish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli, tarmoqning eng asosiy muammosi sifatida elektron tijorat sohasida aniq va markazlashgan hisobot yuritish, bozor ishtirokchilari va ularning faoliyatini aniqlash imkonini beruvchi huquqiy va axborot-institutsional mexanizm mavjud emasligini qayd etish mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur muammoning yechimi sifatida elektron tijorat sohasini samarali tartibga solish va to'liq soliq-statistik hisob yuritish maqsadida quyidagi vazifalarni o'z ichiga olgan maxsus normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish va qabul qilish zarur deb hisoblaymiz:

- aniq, huquqiy jihatdan belgilangan tartibda, elektron tijorat ishtirokchisi deb hisoblanish mezonlarini belgilash;
- elektron tijorat sub'ektlarini avtomatik yoki yarimavtomatik ro'yxatdan o'tkazish mexanizmini joriy etish;
- elektron savdo maydonchalari, banklar va to'lov tizimlari o'rtafigi ma'lumotlar almashinuvini yo'liga qo'yish orqali foydalanuvchi ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar aylanmalarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatini yaratish;
- ushbu ma'lumotlar asosida soliq va statistika organlarining hisobotini avtomatlashtirish.

Takliflar o'rnda keltirib o'tish mumkinki, elektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriyatichiligidagi mavjud muammolar va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, tadqiq etish orqali mamlakatimizda soliq tizimidagi islohotlarda inobatga olinsa hozirda jadal o'sib borayotgan va sezilarli soliq salohiyatiga ega bo'lib borayotgan elektron tijoratni kelgusida samarali soliqqa tortish mexanizmi qaror topadi va budjet daromadlarini yo'qotishning oldi olinishiga erishiladi.

## Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2020-yil, yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. 2022-yil, 29-sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrdagi «Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari hukuqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan hukuqburzaliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralar to'g'risida»gi PQ-381-son Qarori.



4. Ильичев С. В. Особенности налогообложения в сфере электронной коммерции : монография / С. В. Ильичев ; отв. ред. Ю. Б. Рубин. - М. : Маркет ДС, 2004. - 188 с.
5. Кондрашин А. В., Кондрашин В. А. Проблемы налогообложения электронной коммерции на современном этапе // Молодой ученый. - 2018. - №27. - С. 85-87. - URL <https://moluch.ru/archive/213/51957/> (мурожаат санаси: 16.04.2019).
6. Корень А.В. Налогообложение субъектов электронной коммерции: проблемы и перспективы: монография. - Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2010.
7. Ro'ziqulov A. Elektron tijorat: imkoniyatlar, muammolar va yechimlar // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" elektron ilmiy jurnali – 2012. - №3, S-3-8.
8. Urazaliyev K.T. O'zbekistonda elektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriyatichiligining amaldagi holati // "Moliya" jurnali.-Toshkent, 2025. №1.
9. Уразалиев К.Т. Электронная коммерция и теоретические основы ее налогообложения. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №6, dekabr, 2021 yil. ISSN: 2181-1016.
10. Urazaliev K.T. O'zbekistonda xorijiy kompaniyalar tomonidan ko'rsatilayotgan elektron xizmatlarni soliqqa tortish amaliyoti. "Moliyaviy texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali 3-son 2023-yil, ISSN: 2181-3965, VOLUME 4.
11. Urazaliyev K.T. Elektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriyatichilagini takomillashtirish yo'nalishlari // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnali.-Toshkent, 2024. №3. B. 1098-1103.
12. Teriz, N. The impact of e-commerce on international trade and employment. - Procedia - Social and Behavioral Sciences, 2011. - 745 s.
13. Statista xalqaro statistika onlayn-portalı// <https://www.statista.com/>

# Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

**2025. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**  
**tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait\_2100